

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Raxmanova O. R.

«Jahon tarixi» kafedrası katta o'qituvchis
Farg'ona davlat universiteti
setoraimohihosa@mail.ru

Odilov M. O.

«Tarix» fakulteti 2-kurs 23.71- guruh talabasi
Farg'ona Davlat Universiteti
modilovv17@gmail.com

IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'rta asrlarda Arab xalifaligida ijod qilgan Ibn an-Nadim va uning "Kitob al-Fihrist" asari haqidagi dolzarb masalalarning yechimini topishga qaratilgan. Bugungi kunda Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist" asari, o'z davrining ilmiy va adabiy merosini o'rganish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ilm-fan, tarix, falsafa, adabiyot va boshqa sohalar bo'yicha o'sha davrda yozilgan asarlarning ro'yxati va ta'riflari ilmiy tadqiqotlar uchun juda qimmatli. Bu jihat, o'z vaqtida yo'qolgan yoki yirtilgan asarlarni tiklashga yordam beradi va o'sha davrning madaniy hayotini tushunishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: Ibn an-Nadim, al-fihrist, Mafatih-al-ulum, Basra, Kufa, Mosul, Damashq, Ahmad Taffazuliy, Ibn Hajar, Dar-ar-Rum, Kayoniylar, alkimyo.

KIRISH

Tarix ilmida manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan "Kitob al-Fihrist" asari juda qimmatli manba hisoblanadi. Ibn an-Nadimning asari, nafaqat Islom dunyosi, balki butun insoniyat tarixining qimmatli yodgorligidir. U, boshqa xalqlarning ilmiy va madaniy yutuqlarini o'z ichiga olgan holda, butun dunyo madaniyatiga qo'shilgan hissani tasvirlaydi. Shu bilan birga, bu asar tarixiy merosni o'rganish va global ilmiy va madaniy aloqalarni aniqlash uchun foydalidir. Hozirgi kunda, Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist" asari, tarixshunoslar, adabiyotshunoslar, falsafashunoslar, va boshqa sohalarida tadqiqot olib borayotgan olimlar uchun juda dolzarb manba bo'lib qolmoqda. Asardagi ro'yxatlar, kitoblar, va mualliflar, zamonaviy ilmiy va adabiy tadqiqotlar uchun o'zgarishlar va yangi bilimlar kashf qilish imkonini yaratadi. U, shuningdek, Islomiyat tarixining murakkabligini va uning boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqalarini yoritishda asosiy o'rin tutadi.

Ibn an-Nadim ilm-fan va adabiyot sohalarini mantiqiy tarzda tasniflash orqali, ularning rivojlanish jarayonini va o‘zaro aloqalarini ko‘rsatgan. Bu metodologiya, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy yondashuvlardan biri bo‘lib, ilmiy izlanishlar va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda ham muhimdir. Shuning uchun, Ibn an-Nadimning ilmiy mantiqiy tasnifi, ilm-fan sohalarining qanday rivojlanishiga hissa qo‘shganini ko‘rsatib beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ibn Hajarining “Lison-al-mizon” (Muvozanat tili) asarini ham esga olishimiz kerak bo‘lib, unda muallif Ibn an-Nadimning tarjimai holi haqida Ibn Najor, Zahabiy va boshqalarga qaraganda batafsilroq ma’lumot beradi. Qayd etilgan mualliflardan Ibn Hajar Ibn an-Nadim bilan keskin munosabatlarga ega edi. Bu manbani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, uning Ibn an-Nadim haqidagi ma’lumotlari asosan “al-Fihrist”dan keltirilgan, ba’zan esa ishonchsiz faktlar asosida qurilgan. Har holda, manbalar soni kam bo‘lishiga qaramay, uning ishiga murojaat qilish va ehtiyotkorlik bilan xulosa chiqarish kerak. Ibn an-Nadimning kelib chiqishi haqida aniq gapirish mumkin emas. Al-Fihristda uning millati va biron bir arab qabilasi bilan aloqasi haqida materiallar mavjud emasligi sababli uni arab bo‘lmagan deyishimiz mumkin. Shuningdek, “al-Fihrist”da va 239-240-sahifalarda keltirilgan materiallarda Eron dinlari va e’tiqodlariga e’tibor berilmagani, ehtimol, uning kelib chiqishi eronlik emasligidan dalolat beradi. Ibn Xajar “Lison al-mizon” asarini tanqidiy-tahliliy metodlar bilan yozganligini ko‘rishimiz mumkin.

Eronlik tadqiqotchi Ahmad Tafazzuliy o‘zining “Eron adabiyotining islomgacha bo‘lgan tarixi” asarida Ibn an-Nadimning “forslar ertaklarni birinchi tuzuvchi” fikrini behuda gap deb hisoblaydi va shunday ta’kidlaydi: “Ibn an-Nadim ertaklarni birinchi tuzuvchilar, ularni nashr etganlar” deb yozadi. Kitob holida, xazinalarida saqlanayotgan, ba’zilar hayvonlar og‘zidan aytilgan, birinchi eroniylar (Kayoniylar va Ahamoniylar) edi. Eronliklar ertaklarni birinchi tuzuvchilar bo‘lgan degan har qanday gap ma’lum darajada behuda gapdir. Alohida xalq va alohida qabilani ertakning ilk tuzuvchilari deb hisoblash mumkin emas, chunki qadimgi dunyoda turli qabilalar orasida ertak doimo talabga ega bo‘lgan. Ahmad Taffazuliyning ushbu asari tanqidiy usullar metodlardan foydalanib yozilgan bo‘lib, asarda Ibn an-Nadimning fikriga e’tiroz va tanqid bildirilgan.

Abu al-Faraj Muhammad ibn Ishoq an-Nadim (arab. nasab (otalik) Ibn an-Nadim (995 yoki 998) musulmon arab, bibliograf va biograf bo‘lgan Bag‘dodda tug‘ilgan. “Kitob al-Fixrist” (Kitob-katalog) bibliografik va biografik ensiklopediya tuzdi.

320/932 hijriy 380-yil 20-Sha’bon chorshanba kuni o‘sha yerda vafot etdi. Uning kelib chiqishi arab edi, ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra fors deb ham aytib

o'yilgan. Olti yoshidanoq u madrasalarda tahsil olib, islomshunoslik, tarix, geografiya, qiyosiy din, tabiiy fanlar, grammatika, ritorika va Qur'on tafsiri bo'yicha sifatli, har tomonlama ta'lim oldi. Muallif Turat al-Insaniyaning aytishicha, an-Nadim u bilan birga tahsil olgan. X asrning ba'zi yetuk olimlarining ma'ruzalarida qatnashib, u otasining kitob sotuvchisi kasbini egallagan. Uning otasining ismi Ishoq bo'lib, uning ismiga qo'shimchalar hamda otasi Abul-farodj va Abuya kub ismlari bu taxminni mustahkamlaydi. Garchi "Chaster Bitt" qo'lyozmasi muqaddimasida Ibn an-Nadim o'rniga u an-Nadim deb atalgan bo'lsa-da, "al-Fihrist"da Muhammad ibn Ishoq Ibn an-Nadim nomi bilan tilga olinadi. Tarixiy manbalarda xuddi shu shakl ko'proq qayd etilgan yoki Ibn an - Nadim deb ataladi. Lekin, har holda, Nadimlar oilasi arablar orasida juda qadimiy va mashhur edi. Olim Xvolson shunday yozadi: "Uning kitobi juda qimmatlidir. Bu olimlar va ularning asarlari haqida ma'lumot beruvchi uchinchi eng mashhur kitobdir"[1. 139-c.].

Ilm izlab Basra va Kufadagi intellektual markazlarni ziyorat qilgan bo'lsa kerak. Ibn an-Nadimning tug'ilgan joyi haqida aniq ma'lumot yo'q. Bizga faqat uning Bag'dod va Dar-ar-Rumda savdogarlar va amirlar istiqomat qilgan Shamasiya mahallasida (hozirgi Solih. Saudiya Arabistonida) yashagani shuningdek, bir muddat Masulda yashagani bizga ma'lum. Uning oilasi haqida ma'lumotlar unchalik ham ko'p emas, lekin shunga qaramasdan tabib Ibn Abu Usaybiya (vaf. 1273) "Abu al-Faraj" ya'ni an-Nadimni uylanganligini va kamida bitta o'g'li borligini ko'rsatadi[2. 54-c.].

987-yilda Ibn an-Nadim kitob xaridorlari va sotuvchilari uchun foydali qo'llanma sifatida "al-Fihrist" (Katalog)ni to'play boshladi. Uzoq vaqt davomida u minglab mualliflar, ularning tarjimai hollari va to'plangan asarlarini butun mintaqadagi, jumladan Mosul va Damashqdagi shaxsiy kitob kolleksiyalari va kutubxonalariga muntazam tashrifi va Bag'dodning jonli adabiy hayotidagi faol ishtiroki orqali ushbu ma'lumotlarni yeg'ishga erishdi. Ibn Ishoq an-Nadimning o'z asarlarida dinlar va diniy mazhablar haqida keng munozaralari, ta'riflari va atamalarining nozik tomonlari uning diniy e'tiqodi va mansubligi borasida savollar tug'dirdi. Turli olimlar tomonidan an Nadimning qaysi dinga e'tiqod qilganligi haqida turlicha fikrlar mavjud.

X asrdagi arab alifbosi bibliografik nuqtai nazardan juda murakkab bo'lib, "al-Fihrist"da materiallar joylashtiriladi va o'nta tematik qismga bo'linadi va bu qismlarning har biri ketma-ket va uyg'un holda joylashtiriladi. Umuman olganda, al-Fihristdagi materiallarning bibliografik ko'rinishi quyidagicha:

1-bob - kirish: turli xalqlarning yozuv turlari, yahudiylarning, nasroniylarning muqaddas imzolari, Qur'on; 2-bob - Arab filologiyasi; 3-bob - Tarixshunoslik

4-bob - Arabcha oy; 5-bob - Musulmon ilohiyotshunosligi; 6-bob - Etika – Huquqiy ta’limotlar; 7-bob – Falsafa; 8-bob - hikoya, mualliflik va anonim adabiyot; 9-bob - Musulmon bo‘lmagan diniy ta’limotlar; 10-bob – Kimyo [3. 61-c.]

“Al-Fihrist”ning eng mashhur qo‘lyozmalaridagi uchinchi bobning nomi yo‘q, ehtimol u Ibn an-Nadim qo‘lyozmalarida ham bo‘lmagan. Al-Fihristning mazmunida aniq ko‘rinib turgan mutanosib ravishda tuzilgan sxema faqat Ibn-an-Nadimning shaxsiy xizmati hisoblanmaydi. Bu rejadan X asr arab olimlari turli sohalarda foydalanganlar. Ular turli janr va nazariyalarga oid kitoblar yaratdilar.

Ibn an-Nadim davrida mavjud bo‘lgan fanlarni tasniflash zarur edi, chunki kitob asarlarini tasniflash Ibn an-Nadim hal qilgan muammolardan biri bo‘lib, uning faoliyatida katta ahamiyatga ega edi. U.I. Karimov X asrda O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida fan shunday yuksaklikka erishganligini ta’kidlaydiki, alohida fanlar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatni aniqlash o‘sha davrning muhim muammolaridan biri hisoblangan. Ibn an-Nadim hayotligida ham Sharq olimlari bu muammoga alohida e’tibor qaratdilar, “Fanning paydo bo‘lishi haqida” va “Ilmlar tasnifi to‘g‘risida”gi maxsus risolalar yozildi. X asrning birinchi yarmida Abu Nasr Forobiy tomonidan (vafot etgan yili 950). Shuningdek, ushbu asrning yana bir olimi Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiyning “Mafatih-al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) asari ham shu muammoga bag‘ishlangan asarlar yozgan.

Qolaversa, ushbu asrda “Ixivon-as-safo” (Yaxshi birodarlar) kitobida bu muammo haqida alohida fikr bildirilgan. Avitsenna tomonidan fanlar tasnifini ham eslash mumkin. Yuqorida tilga olingan kitoblardagi ilmiy tasnif turlarini al-Fihristaning tuzilishi bilan solishtirish uchun bir qancha namunalarni keltirdim.

O‘tmishdoshlarning tarixiy asarlarini o‘rganish va tadqiq etish zamonaviy adabiyotshunoslar oldidagi asosiy vazifadir. Adabiyotimizning qadimiy xususiyatlarini ochib berish ba’zi bir yechimini topmagan muammolardan darak berishi mumkin. Menimcha, ajdodlarimiz merosini o‘rganish va o‘rganishga, uning ayrim muammolarini tarixiy nuqtai nazardan belgilab berishga yanada jiddiy e’tibor qaratish vaqti keldi. Binobarin, bugungi kunda zamonaviy adabiyot taraqqiyotini salaflar ijodini o‘rganmasdan, tadqiq qilmasdan tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari, fors-tojik fan va adabiyoti namoyandalarining merosini o‘rganish adabiyotimiz qadimiy tarixga ega ekanligini, boshqa xalqlar adabiyoti rivojiga katta ta’sir ko‘rsatganligini bizga isbotlash imkonini beradi.

Ibn an-Nadim “al-Fihrist”ning “Olimlar haqida ma’lumotlar va ular tuzgan kitoblarning nomlari” nomli sakkizinchi bobida uch bo‘limni o‘z ichiga olgan hikoyatchilar haqida ma’lumot beradi: birinchi bo‘limda hikoya qiluvchilar va hikoya qiluvchi kitoblarning nomlari keltirilgan. U qadimgi forslarni birinchi ertak mualliflari deb hisoblab, forslar ertak va rivoyatlarni hayvonlarning og‘zidan aytib,

ularni alohida kitob holida o'z xonadonlarida saqlaganliklarini qayd etadi. Jumladan, u bu haqda shunday yozadi: “Forslar ilk ertaklarni tuzuvchi, ularni kitob holiga keltirgan, o'z xazinalarida saqlagan va hayvonlarning og'zidan aytib bergan[4. 210-c.].

Eronlik tadqiqotchi Ahmad Tafazzuliy o'zining “Eron adabiyotining islomgacha bo'lgan tarixi” asarida Ibn an-Nadimning bu fikrini behuda gap deb hisoblaydi va shunday ta'kidlaydi: “Ibn an-Nadim ertaklarni birinchi tuzuvchilar, ularni nashr etganlar, deb yozadi. Kitob holida, xazinalarida saqlanayotgan, ba'zilar hayvonlar og'zidan aytilgan, birinchi eroniylar (Kayoniylar va Ahamoniylar) edi. Eronliklar ertaklarni birinchi tuzuvchilar bo'lgan degan har qanday gap ma'lum darajada behuda gapdir. Alohida xalq va alohida qabilani ertakning ilk tuzuvchilari deb hisoblash mumkin emas, chunki qadimgi dunyoda turli qabilalar orasida ertak doimo talabga ega bo'lgan.

Ibn an-Nadimning asari orqali islom dunyosidagi ilmiy va madaniy almashuvni o'rganish mumkin. Islom olami o'z vaqtida Yunon, Rim, Hind va Fors madaniyatlari bilan ilmiy va madaniy aloqalarda bo'lgan. Ibn an-Nadim, bu aloqalarni yoritib, islom dunyosidagi ilm-fan va madaniyatlarning rivojlanishiga boshqa madaniyatlarning qo'shgan hissasini ko'rsatgan. Islom falsafasi va ilm-fani, asosan, yunonlarning Aristotel, Platon kabi faylasuflarining asarlari asosida rivojlangan. Ibn an-Nadim, bu falsafiy g'oyalarni arab ilm-faniga qanday integratsiya qilinganini tushuntiradi. Hindistondan kelgan matematika, astronomiya va tibbiyot ilm-fanining islom olamiga ta'siri katta bo'lgan. Ibn an-Nadim ushbu aloqalarni ta'kidlash orqali o'z davrining ilmiy birligini ko'rsatadi.

Ibn an-Nadimning “Kitob al-Fihrist” asari o'z davrining madaniy va ilmiy yutuqlarini to'plagan va tizimlashtirgan birinchi asar bo'lib, u madaniy va ilmiy yutuqlarni o'rganish uchun ajoyib manbaga aylandi. Uning asari orqali, o'rta asr islom dunyosidagi ko'plab ilmiy va madaniy yo'nalishlarning rivojlanishi haqida ma'lumot olish mumkin. Ibn an-Nadimning “Kitob al-Fihrist” asari orqali o'rta asr islom dunyosidagi ilmiy va madaniy yutuqlarni o'rganish, nafaqat o'sha davrning ilmiy taraqqiyoti haqida chuqur tushuncha olish, balki islom olamining tarixiy, falsafiy, adabiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini ham yoritish imkonini beradi. Asar, ilm-fan, madaniyat va tarix sohalarida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb manba sifatida xizmat qilmoqda.

XULOSA

Yakuniy xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Ibn an-Nadim o'z davri kitobxonlari uchun juda ham muhim asarni yaratdi. Ushbu asar orqali Bag'dod kutubxonasiga tashrif buyurgan insonlar o'zi uchun kerakli kitoblarni qulay tarzda

topishga muvassar bo'lishdi. "Kitob al-Fihrist" o'sha davrda yaratilgan boshqa kitoblaridan farqi shundaki, asar o'z ichiga bir qancha asarlarning sharxlarini jamlagan. Ibn an-Nadim o'zining bu asarini kitob xaridorlariga har tomonlama yordam berishini ko'zlab yozgan. Ushbu asarning qimmatli jihati shundaki, asar birin ketinlikda alohida bo'limlarga bo'linib, har bir bo'lim o'zida tarix uchun kerak bo'lgan juda qimmatli ma'lumotlarni jamlagan. Asarning asl nusxasi saqlanib qolmaganligi sababli, uning qo'lyozma nusxalari bir nechta davlatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. Bularga misol qilib Irlandiyaning Chester Beatty Library, Turkiyaning Sulaymaniye kutubxonasi, Niderlandiyaning Leyden kutubxonasi, Misrning Dar al-Kutub kabi kutubxonalarda "Kitob al-Fihrist"ning bir qancha indekslangan qo'lyozma nusxalari mavjud.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллоев И. Поэзия на арабском языке в Средней Азии и Хоросане X начала XI вв / И.Абдуллоев – Ташкент: Фан, 1984. – 294 с.
2. Абдусатторов Абдушукур. Арабият ва адабиёти адди Разнавиён / А. Абдусатторов – Душанбе, 2001. – 336 с.
3. Бартольд В.В. Мусульманский мир Москва: Наука, 1966. – 784 с.
4. Захирии Самарканди. Синбоднома. Составитель и автор передисловия Дж. Азизкулов. – Душанбе: Пайванд, 2012. – 238 с.
5. Рахманов М.А. "Аль - фихрист" Ибн ан Надима как источник персидско –таджикской литературы. – Душанбе: Таджикистан, 2018. – 160 с.

Рахманова О. Р.

Старший преподаватель кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
setoraimohihosa@mail.ru

Одилов М. О.

Студент 2-го курса группы 23.71., исторического факультета
Ферганский государственный университет
modilovv17@gmail.com

ТРУД ИБН АН-НАДИМА "АЛЬ-ФИХРИСТ" КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на поиск решений актуальных вопросов об Ибн ан-Надима, творившем в Арабском халифате в средние века, и его труде "Китаб аль-Фихрист." В настоящее время произведение Ибн ан-Надима "Китаб аль-Фихрист" служит важным источником для изучения научного и литературного наследия того времени. Список и описания работ, написанных

в тот период по науке, истории, философии, литературе и другим областям, представляют огромную ценность для научных исследований. Этот аспект способствует восстановлению утраченных или поврежденных произведений и позволяет понять культурную жизнь той эпохи.

Ключевые слова: Ибн ан-Надим, аль-Фихрист, Мафатих аль-Улум, Басра, Куфа, Мосул, Дамаск, Ахмад Таффазули, Ибн Хаджар, Дар-ар-Рум, Кайаниды, алхимия.

Rakhmanova O. R.

Senior Lecturer at the Department of «World History»

Fergana State University

setoraimohihosa@mail.ru

Odilov M. O.

2nd year student of group 23.71, Faculty of History

Fergana State University

modilovv17@gmail.com

IBN AN-NADIM'S WORK "AL-FIHRIST" AS A HISTORICAL SOURCE

ABSTRACT

This article aims to explore current issues regarding Ibn an-Nadim, who lived and worked in the Arab Caliphate during the Middle Ages, and his work "Kitab al-Fihrist." At present, Ibn an-Nadim's "Kitab al-Fihrist" serves as a crucial source for studying the scientific and literary heritage of that era. The compilation and descriptions of works written during that period on science, history, philosophy, literature, and other fields are of immense value for scholarly research. This aspect contributes to the reconstruction of lost or damaged works and offers insights into the cultural life of that time.

Keywords: Ibn an-Nadim, al-Fihrist, Mafatih al-Ulum, Basra, Kufa, Mosul, Damascus, Ahmad Taffazuli, Ibn Hajar, Dar-ar-Rum, Kayanids, alchemy.